

**TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI**  
**HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI**  
**DSc.03/30.12.2019.Fil.21.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**  

---

**TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI**

**KARAYEV UMED JO‘RAYEVICH**

**BADIIY TARJIMADA IJODIY VORISIYLIK VA O‘ZIGA XOSLIK**  
**(Hirot adabiy muhiti tarjimachilik an’analari misolida)**

**10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik  
va tarjimashunoslik**

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi**  
**AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025**

UO'K: 82.091:811.222.1'255.2

КБК: 83.3(5Fors):81.2-7

К- 21

**Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati  
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по  
филологическим наукам**

**Contents of Dissertation Abstract of Doctor of Philosophy (PhD) on  
Philological Sciences**

**Karayev Umed Jo'rayevich**

Badiiy tarjimada ijodiy vorisiylik va o'ziga xoslik (Hirot adabiy muhiti tarjimachilik  
an'analari misolida) .....5

**Караев Умед Джураевич**

Творческая преемственность и индивидуальность в художественном переводе  
(на примере переводческих традиций литературной среды Герата)  
.....25

**Karaev Umed Juraevich**

Creative continuity and individuality in literary translation (Using the Example of  
the Translation Traditions of the Literary Environment of  
Herat)..... 51

**Эълон қилинган ишлар рўйхати**

Список опубликованных работ

List of publications.....57

**TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI**  
**HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI**  
**DSc.03/30.12.2019.Fil.21.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**  

---

**TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI**

**KARAYEV UMED JO‘RAYEVICH**

**BADIIY TARJIMADA IJODIY VORISIYLIK VA O‘ZIGA XOSLIK**  
**(Hiroat adabiy muhiti tarjimachilik an’analari misolida)**

**10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik  
va tarjimashunoslik**

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi**  
**AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025**

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.3.PhD/Fil3844 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Termiz davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti veb sahifasida (<https://tsuos.uz/>) hamda «Ziyonet» Axborot ta'lim portalida ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar

Salohiy Dilorom Isomiddin qizi  
filologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Xomidov Xayrillo Xudoyorovich  
filologiya fanlari doktori, professor

Nafasov Shodmon Namozovich  
filologiya fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O'zbek tili  
va adabiyoti universiteti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.Fil.21.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil 10 aprel soat 10 daqi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100060, Toshkent, Amir Temur ko'chasi, 20-uy. Tel: (99871) 233-45-21; faks: (99871) 233-52-24; e-mail: info@tsuos.uz.)

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat sharqshunoslik universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (76 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100060, Toshkent, Amir Temur ko'chasi, 20-uy. Tel: (99871) 233-45-21).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil «25 mart» kuni tarqatildi.

(2025-yil «25 mart» daqi 76 raqamli reestr bayonnomasi).



A.M.Mannonov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi,  
filol.f.d., professor

N.R.Ismatullayeva

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy  
kotibi, filol.fan.b.fals.d. (PhD), dotsent

B.To'xliyev

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash  
qoshidagi ilmiy seminar raisi, filol.f.d.,  
professor

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahon tarjimashunosligida adabiy ta'sir hodisasi va tarjima asarlarning genealogik aloqadorligini tadqiq etish ustuvor masalalardan sanaladi. Shu sababdan adabiy aloqalar tadrijiy taraqqiyotini tadqiq etish, mazmun va shakl jihatidan o'xshash asarlarni, aslyat va tarjimani qiyosiy o'rganish, badiiy tarjimada ijodiy vorisiylik, tarjimon individualligi, tarjima jarayonidagi transformatsion jarayonlarga ilmiy baho berish maqsadida olib borilayotgan tadqiqotlar muhim ahamiyatga ega.

Dunyoning turli mamlakatlarida olib borilgan tadqiqotlar natijalariga qaraganda, har bir yangi adabiy hodisa nafaqat ma'lum bir ijodkorning tafakkuri mahsuli, balki ko'p asrlar davomida to'plangan adabiy tajribalar samarasidir. Ajdodlardan meros qolgan, Navoiy ta'biri bilan aytganda, "xaloyiq orasida mashhur" kitoblar, yo N. Konrad "uzatuvchi", "vositachi" deb ta'riflagan asarlar keyingi asrlarda ilhom manbasiga aylangan. Ilmiy kuzatishlar o'tmishda badiiy tarjima takomili jarayoni ham bundan mustasno bo'lmaganligini ko'rsatmoqda. Ijodiy va "tarixiy vorisiylik har qanday badiiy ijodning zarur shartlaridan biridir"<sup>1</sup>. Bunga ilova "o'rta asrlarda an'anaviylik nafaqat shaxsiy ijodkorlikdan ustunlik qilgan, balki ijodkorlikning o'zi faqat an'analar doirasida namoyon bo'lishi mumkin edi"<sup>2</sup>. Ijodkor individualligi esa "avlodlar e'tiboridan chetda qolgan ko'plab tafsilotlarda o'z ifodasini topdi"<sup>3</sup>. Nihoyat vorislar salaflar boshlagan ishni davom ettirib, rivojlantirib, yuqoriroq cho'qqilarga olib chiqqanlar. Shu nuqtayi nazardan dunyo tarjimashunosligi talab etayotgan zamonaviy ilmiy paradigma doirasida tarjimada ijodiy vorisiylikni va har bir davrning o'ziga xos xususiyatlarini tadqiq qilish zarurati vujudga kelgan.

Mamlakatimizning milliy taraqqiyot strategiyasi hozirgi bosqichida ilmiy izlanishlar sifati va ko'lamini oshirish kabi ustuvor strategik vazifalarni belgilab berilgan. Bugungi kunga qadar olimlarimiz tomonidan badiiy tarjimadagi an'analar, ularning tarixiy ildizlari, turli davrlarda yashagan tarjimonlar faoliyatlarining mushtarak va o'ziga xos jihatlarini o'rganish maqsadida bir qator izlanishlar olib borilgan. Mavjud ilmiy dalillar asosida o'zbek va fors-tojik adabiy aloqalari muhim davri hisoblanadigan Hirot adabiy muhiti tarjimachilik an'alariga yana bir bor nigoh tashlash, ajdodlar adabiy merosiga yangi hayot bag'ishlash maqsadida amalga oshirilgan tarjima namunalarini yaxlit holda tekshirish, o'xshash va o'ziga xos jihatlarini belgilash alohida ahamiyatga molikdir. Shu yo'l orqali tarixiy bir davrdagi tarjimalarda muallif uslubi qanday saqlangani yoki o'zgarganini, tarjimaga yondashuvlar qanday rivojlanganini aniqlash mumkin. Prezidentimiz ta'biri bilan aytganda, "bir daraxtning ikki shoxi"<sup>4</sup> bo'lgan ikki xalq mushtarak merosini o'rganish oldimizda turgan muhim vazifalardan biridir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi

<sup>1</sup> Благой Д. Диалектика литературной преемственности // Вопросы литературы. – 1962. – № 2. – С. 94.

<sup>2</sup> Фильштинский И. М. История арабской литературы. V — начало X века. М.: Наука, ГРБЛ, 1985. – С. 12.

<sup>3</sup> O'sha manba, o'sha bet.

<sup>4</sup> Mirziyoyev Sh. Niyati ulug' xalqning ishi ham ulug', hayoti yorug' va kelajagi farovon bo'ladi. – Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2019. – B. 181

to'g'risida", 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-son "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi farmonlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 18-maydagi 292-son "O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining yangidan tashkil etilgan ilmiy-tadqiqot muassasalari faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori, 2017-yil 24-maydagi PQ-2995-son "Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ'ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2018-yil 23-iyundagi PQ-3080-son "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida", 2020- yil 16- apreldagi PQ-4680-son "Sharqshunoslik sohasida kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish va ilmiy salohiyatni oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlar, 2019-yil 3-maydagi PQ-4307-son "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorda, shuningdek, mazkur sohaga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Dissertatsiya respublika Fan va texnologiyalari rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o'rganilish darajasi.** Badiiy tarjimada ijodiy vorisiylik va o'ziga xoslik Hirot adabiy muhiti misolida alohida tadqiqot obyekti sifatida o'rganilmagan bo'lsa-da jahon tarjimashunosligida ijodiy vorisiylik, badiiy tarjimaga xos xususiyatlar, yangilanish, o'zgarishlar, tarjimon ijodiy individualligi masalalari xorij tarjimashunosligida P. Nyumark, D. Holmz, T.Hermans, A. Popovich, G. Turi, A. Lefevr, M. Gusman, S. Bassnet<sup>5</sup>, eronlik tadqiqotchilardan O. Ozarnush, M. Bahromiy, H. Sidqiy<sup>6</sup>, rus va sovet davri olimlaridan N. Konrad, S. Ivanov, Yu. Levin, G. Gachechiladze, P. Topper, V. Komissarov, T. Kazakova, A. Desnitskiy, L. Yevdokimova<sup>7</sup>, o'zbekistonlik olimlar G'. Salomov, N. Komilov, K.

<sup>5</sup> Hermans T. The Manipulation of Literature. Studies in Literary Translation /. – L.: Croom Helm, 1985. – 249 p.; Popovic A. The Concept of Shift of Expression in Translation Analysis. The Nature of Translation. Eds. J. Holmes, F. de Haan, A. Popovic. The Hague, Mouton Publ., 1970, pp. 78–87; Toury G. A Rationale for Descriptive Translation Studies. The Manipulation of Literature. Ed. by T. Hermans. London, Croom Helm Publ., 1985, pp. 16–41.; Lefevere A. Translation Studies: The Goal of the Discipline. Literature and Translation: New Perspectives in Literary Studies Eds. J.Holmes, J.Lambert, R. van de Broek. Leuven, Academic Publ. Co., 1978, pp. 234–235; Lefevere A. Translation, Rewriting and the Manipulation of Literary Fame. – London, New York, Routledge Publ., 1992. –184 p.;Susan Bassnett, André Lefevere. Constructing Cultures: Essays on Literary Translation. – Bristol: Multilingual Matters, 1998 - Social Science - 143 p.; Bassnett S. Translation Studies. 4th ed. –London, New York, Routledge Publ., 2014. – 202 p.; Басснетт С. Истоки и развитие переводоведения в 1975-2016 гг. Пер. с англ. Т. Казаковой. Вестник СПбГУ. Сер. 9. 2016. Вып. 4. С. 31 – 44.

<sup>6</sup> آذرناش آذرنوش. تاریخ ترجمه از عربی به فارسی (از آغاز تا عصر صفوی): 1. ترجمه های قرآنی. – تهران: سروش، 1375. – 328 ص.؛ صدقی حسین و دیگران. تطبیق کلی ابواب سه ترجمه کليلة و دمنه و تحلیل منشأ و موضوعات ابواب آن. مقاله کنفرانس: دومین همایش ملی ادبیات تطبیقی دانشگاه رازی، ۱۳ شهریور ۱۳۹۳. ۹۳۳ – ۹۵۴ ص.؛ بهرامی، محمد. نظریه پردازان ترجمه. نشریه پژوهشهای قرآنی، تابستان و پاییز 1384، شماره 42 و 43. صفحات: از 17 تا 41.

<sup>7</sup> Конрад Н. И. К вопросу о литературных связях / Н. И. Конрад // Конрад Н. И. Запад и Восток: Статьи. – Москва: Наука, 1966. С. 332 – 348 с.; Конрад Н.И. О Литературном “посреднике”/ Запад и Восток. Статьи. –

Jo'raev, S. Mamajonov, E. Ochilov, Z. Isomiddinov, I. G'afurov, G. Maxmudov, R. Shirinova, Q. Musaev, S. Olim, Z. Sadiqov<sup>8</sup> kabi olimlarning ishlarida o'rganilgan. Hirot adabiy muhitida amalga oshirilgan hadis va hikmatlar tarjima-sharhlari haqida B. Valixo'jayev, A. Sevgi, A. Nadjafov, F. Kamolov, M. Pulatova, A. Qaraxon, K. Mudirshonachi<sup>9</sup>, P. Shamsiyev, A. Qayumov, S. G'aniyeva, T. G'afurjonova, I. Husanxo'jaev, M. Hakimov, I. Haqqulov, M. Rashidova, M. Rajabova<sup>10</sup>, kabi tadqiqotchilarning ilmiy kuzatishlari mavjud.

М.: Наука, 1966. – С. 348 – 365 с.; Иванов С. Алишер Навоийнинг “Лисонут-тайр” достони (Таржимоннинг асл нухани шарҳлаш тажрибаси)/ Таржима санъати (Мақолалар тўплами). – Т.: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1978. 195 – 224 б.; Левин Ю. Перевод и бытие литературы. Вопросы литературы. №2, 1979 г. – С. 10-18.; Гачечиладзе, Г. Р. Художественный перевод и литературные взаимосвязи. – 2-е изд. – М.: Советский писатель, 1980. – 255 с.; Топер П. Перевод и литература: творческая личность переводчика. Журнал «Вопросы литературы», 1998, №6. С. 178-199; Комиссаров В.Н. Теория перевода (лингвистические аспекты). – М.: Высш. шк., 1990. – 253 с.; 54. Казакова Т. А. Художественный перевод: Учебное пособие. – СПб.: IVЭСЭП, Знание, 2002. – 112 с.; 50.; Десницкий А. С. Скопос вместо эквивалента. / Десницкий А. С. Современный библейский перевод: теория и методология. – М.: Изд-во ПСТГУ, 2015. – 432 с.; Евдокимова Л. Перевод и подражание: литературная теория и практика. /Перевод и подражание в литературах Средних веков и Возрождения.– Москва: ИМЛИ РАН, 2002. – С. 3-11.

<sup>8</sup>Саломов Г. Тил ва таржима. – Т.: Фан, 1966. – 384 б., Саломов Ф. Бадиий таржиманинг назарий ва амалий масалалари. –Т.: “Фан”, 1966. – 385 б.; Саломов Ф. Таржима назариясига кириш. – Т.: Ўқитувчи, 1978. – 220 б.; “Саломов Ф. Таржима ташвишлари. – Т.: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1983. – 192 б., Саломов Г. Адабий анъана ва бадиий таржима. – Т.: Фан, 1980. – 58 б. Саломов. Ф Бадиий таржимада услубий ўзига хосликни қайта яратиш проблемаси // Таржима санъати. (Мақолалар тўплами). – Т.: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1980. –Б.53; Комилов Н. Бу қадимий санъат: Рисола. – Т.: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1988. – 192 б.; Жўраев К. Таржима санъати. – Т.: Фан, 1982. – 60 б.; Мамажонов С. Ўзбекистонда бадиий таржима тарихи. – Т.: Фан, 1985. – Б. 25-35.; Очилов Э Бадиий таржима масалалари. – Т.: Тошкент давлат шарқшунослик институти, 2014.– 176 б.; Очилов Э. Таржима назарияси ва амалиёти. – Т.: Тошкент давлат шарқшунослик институти, 2012. – 124 б.; Исомиддинов З. Якин туркий тиллардан шеърӣ таржима хусусиятлари. (“Манас” эпоси таржимаси мисолида): Филол. фан. ном. дисс. автореф. – Т., 1991. – 22 б.; Исомиддинов З. Туркий эпос ва таржима масалалари. – Т.: Университет, 1995. – 63 б. Isomiddinov Z. Tarjimada milliylik masalasi. O'zbek adabiyotshunosligida talqin va tahlil muammolari" mavzusidagi ilmiy-nazariy anjuman materiallari. Т. „Mumtoz so'z" nashriyoti, 2014 – В.75-78. Гафуров И. Таржимашунослик мутахассислигига кириш. – Т.: Меҳридарё, 2008. – 118 б.; Гафуров И., Мўминов О., Қамбаров Н.Таржима назарияси // Олий ўқув юртлар учун ўқув қўлланма. – Т.:Тафаккур Бўстони, 2012. – 280 б.; Мусаев Қ. Таржима назарияси асослари. –Т.: Ўзбекистон Республикаси ФА “Фан” нашриёти, 2005. –352 б.; Олим С. Таржимавийлик ва назаравийлик (“Лисон ут-тайр” – форсий-туркий шеърӣят синтези сифатида). // Жаҳон адабиёти, 2017, № 2. – Б. 146 – 153; Олимов С. “Лисон ут-тайр” нинг қиёсий поэтикаси: синтез, назаравийлик ва таржимавийлик. Автореферат. – Самарқанд, 2023 йил. – 79 б; Олимов С., Матёкубов А. Лермонтовнинг ўзбек таржимонлари. – Т.: Фан, 1989. – 68 б.; 3. Садиқов. «Қадимги туркий реалиялар таржимаси». Монография. Наманган: «Vodiy Media», 2021. – 120 бет.

<sup>9</sup>Валихўжаев Б. “Арбаъин ҳадис” ва унинг таржималари // Алишер Навоийнинг адабий маҳорати масалалари. – Т.: Фан, 1993. – Б. 126 – 135.; Sevgi, Ahmet. Molla Câmi'nin 'Erba'in'i ve Türkçe Manzûm Tercümelere. – Selçuk Üniversitesi Türkiyat Araştırmaları Dergisi, S 6, 1999, s. 1–145.; Наджафов Айдын. Подарок к сорокалетию (Опыт исследования поэтического толкования хадисов Джами и Наваи). –Журнал «ЗВЕЗДА ВОСТОКА», №6.; 2003 г. Камолов Ф. “Чиҳил ҳадис”-и Абдуррахмони Чомӣ ва арзишҳои адабии он. – Хучанд: Ношир, 2014. – С. 141. – 188 сах.

Пулатова М. Шарқ мумтоз адабиётида “Арбаъин” ёзиш анъаналари (Жомий, Навоий ва Фузулий асарлари мисолида). Автореферат. –Тошкент, 2020. – 59 б.

قره خان عبدالقادر. چهل حدیث نویسی در ادبیات فارسی و تأثیر آن در ادبیات ترک از طریق ترجمه این آثار. دانشکده ادبیات و علوم انسانی دانشگاه تهران مهر 1346، سال پانزدهم - شماره 1. — ص. از 97 تا 108. ؛ اربعین جامی (چهل حدیث نبوی، نورالدین عبدالرحمن جامی) مقدمه، تصحیح و استخراج احادیث از کاظم مدیرشانه چی، چاپ آستان قدس رضوی، ۱۳۶۳. — ۳۸ ص.

<sup>10</sup> Навоий Алишер. Асарлар. XV жилдлик. XV жилд. Назм ул–жавоҳир. – Т.: Ғ.Ғулом номидаги бадиий адабиёт нашриёти, 1968. – 245 б.; Қаюмов А. Шеър дурдоналари. / Қаюмов А. Дилқушо такрорлар ва руҳафзо ашъорлар. – Т.: “Sharq”, 2014. – Б. 89 – 191.; Ғаниева С. Алишер Навоий ҳаёти ва ижоди. – Т.: “O'zbekiston” НМИУ, 2015. –128 б.; Ғаниева С. Тенгри паноҳ ўлсун анга // «Назм ул–жавоҳир» ҳақида. Саодат журнали. 1991. № 1. – Б. 10–11; Ғаниева С. Ҳар бирини тўрт дурри гавҳар дегил //Имом ал–Бухорий сабоқлари. – 2001 № 3. –Б. 211–214 б; Ғаниева С. Ҳар нуктага бир тарона // Имом ал–Бухорий сабоқлари. – 2002. № 3. – Б. 210–212; Ғаниева С.«Назм ул–жавоҳир» муқаддимаси ҳақида // Ўзбек тили ва адабиёти – 1991. № 1. – Б. 72–82; Рубоий сеҳри.(Тўплам: Катта мактаб ёшидаги болалар учун). Тузувчи, мақола, луғат ва изоҳлар муаллифи С. Ғаниева – Т.: Ёш гвардия, 1986. – 152 б.; Гафуржонова Т. Назм ул–жавоҳир // Навоий ва адабий таъсир

Mazkur asarlarni ilmiy jihatdan o'rganish jihatidan olib borilgan tadqiqotlarning ilmiy ahamiyatini e'tirof etgan holda mazkur davrda amalga oshirilgan tarjimalar, jumladan Alisher Navoiyning "Nazmu-l-javohir" asarini tarjimashunoslik nuqtayi nazaridan tadqiq qilish muhim ahamiyatga ega. Zero bu tadqiqotlarning hech birida Navoiy "Nazmu-l-javohir" asarini yaratishi jarayonida aynan qaysi original yo manbadan foydalangani, "Nasru-l-laoliy" kimning qalamiga mansub ekanligi haqidagi savolga aniq javob topolmaymiz. Hadislar va islom imomlari tarjima-sharhlari tarjimashunoslik sohasida ilgari surilgan yangi nazariyalar, tarjimashunoslikdagi yangicha yondashuvlar asosida tadqiq qilinmagan. Tarjimonlarning an'anaga ergashishlari, ijodiy vorisiylik masalalari, tarjimachilikning adabiy aloqalarga ijobiy ta'siri munosib baholanmagan. Xususan, bu davr namoyandalarning ajdodlar adabiy merosini ijodiy qayta ko'rib chiqish, uni o'z zamonlariga moslashtirish uchun amalga oshirgan ishlari yuzasidan olib borilgan tadqiqotlar yetarli emas va bu mavzular hamon o'zining tadqiqotchilarini kutmoqda. Tadqiqotning muhimligi va ahamiyati shu jihatlar bilan belgilanadi.

**Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim yoki ilmiy tadqiqot muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejaları bilan bog'liqligi.** Tadqiqot Termiz davlat universitetining "Qardosh va noqardosh tillar leksik-semantik tarkibining qiyosiy-chog'ishtirma tadqiqi: sinxroniya va diaxroniya" mavzusidagi ilmiy tadqiqoti doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** Hirot adabiy muhiti tarjimachilik an'analari misolida badiiy tarjimada ijodiy vorisiylik va o'ziga xoslik jihatlarini tahlil etishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

Hirot adabiy muhitida badiiy tarjima an'analari, ijodiy vorisiylik, tarjima amaliyotining o'ziga xos xususiyatlari shakllanish jarayonida tarixiy-madaniy kontekst va geografik makonning ta'sirini aniqlash;

badiiy asarlar tarjimalari o'rtasidagi bog'liqlikni, tarjimon individualligining matnni moslashtirish va uning keyingi transformatsiyasiga ta'sirini tadqiq etish;

tasavvufiy adabiyotning tarjima an'analari rivojlanishiga ta'siri, yangi tarjima usullari va janrlarining shakllanishidagi ahamiyatini tahlil qilish;

Alisher Navoiyning "Nazmu-l-javohir" asarining manbalari va boshqa tarjima va sharhlar bilan genetik-vorisiy aloqalarini aniqlash;

Hirot adabiy muhitida amalga oshirilgan tarjima asarlarning hozirgi zamon nashrlarini tahlil qilish, mavjud kamchiliklarni aniqlash va ularni bartaraf etish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish.

**Tadqiqotning obyektı.** Tadqiqot obyektı sifatida Hirot adabiy muhitida amalga oshirilgan hadislar va hikmatli so'zlarning she'riy sharhlari tanlandi. Tadqiqot doirasida arbainchilik an'anasi va "Nasru-l-laoliy" to'plami (Abu-l-Fazl

---

masalalari. Maqolalar tўplami. – T.: "Fan", 1968. – B. 344–351 ; Xusanxўjaev I. Alisher Navoiy ta'lim-tarbiya haqida. –T.: Ўрта va oliy maktab, 1963. – 140 б.; Ҳакимов М. Navoiy афоризмларининг манбаларига доир // Адабий мерос. 1971. № 2. – Б.88 – 90 б.; Ҳаққулов И. Ўзбек адабиётида рубоий. –Т.: "Фан", 1981. – 96 б; Ҳаққулов И. Моҳият ва миқёс./ Ҳаққулов И. Тасаввуф ва шеърят. – Т.: Ғ. Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1991. – 184 б.; Рашидова М. Аlisher Navoiy "Nazmu-l-javohir" asarining matnii tadqiqoti. – T.: "Mumtoz so'z", 2011. – 132 б.; Ражабова М. Аlisher Navoiyning шеърӣ дурдонаси. – T.: "Фан" нашриёти, 2008 йил. – 103 б.; Ражабова М. Аlisher Navoiy "Назм ул-жавоҳир" asarining манбалари ва бадийати. Диссертация. – Самарқанд: 2006 йил. – 160 б.

ibn Hasan ibn Fazl Tabrisiy, XII asr) asosida vujudga kelgan asarlar, jumladan Alisher Navoiyning “Nazmu-l-javohir” asari va boshqa she’riy sharhlar o‘rtasidagi vorisiy-genetik aloqadorlik masalalari o‘rganiladi.

**Tadqiqotning predmetini** Hirot adabiy muhiti badiiy tarjimalarida ijodiy vorisiylik va o‘ziga xoslik masalalarini tadqiq etish tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqot mavzusini yoritishda tavsifiy, qiyosiy-tarixiy, qiyosiy-tipologik, analitik, komponent tahlil va matn tahlili kabi xos usullaridan foydalanildi.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:**

ilk bor tarixiy-madaniy va geografik sharoit ta’sirida Hirot adabiy muhitida yaratilgan asarlar misolida badiiy tarjimada ijodiy vorisiylik va uning o‘ziga xos jihatlari o‘rganilib, tarjimonning individualligi masalasi tahlil qilindi;

ilk bor turli davrlarda yaratilgan asarlar o‘rtasidagi bog‘liqliklar tahlil qilinib, matni talqin qilishda tarjimon shaxsiyatining ta’siri tadqiq qilindi;

tasavvufiy adabiyotning yangi tarjima usullari va janrlarining rivojlanishi hamda she’riy tarjima-sharhlar vujudga kelishi jarayonidagi ta’siri aniqlandi;

ilk bor Alisher Navoiyning “Nazmu-l-javohir” asariga qaysi asar manba sifatida xizmat qilgani va boshqa tarjima-sharhlar bilan genetik-vorisiy aloqalari aniqlandi;

tarjimon-shoirlarning hadis va hikmatli so‘zlarni she’riy tarjima qilishdagi mahorati qiyosiy tahlil qilindi;

Hirot adabiy muhitida yaratilgan va tarjima qilingan asarlarning keyingi “hayoti” tahlil qilindi: asl matnlarni boyitgan va rivojlantirgan keyingi mualliflarning hissasini hisobga olish zarurligi ilmiy asoslandi. Shuningdek, bu asarlarning zamonaviy davrdagi nashrlari tarjimashunoslik nuqtayi nazaridan o‘rganilib, olib borilgan ishlarga tanqidiy baho berish imkoniyati yaratildi.

**Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:**

Hirot adabiy muhitida shakllangan tarjima an’analari va tarjimonlar faoliyatlarida ijodiy vorisiylik hamda o‘ziga xoslikning namoyon bo‘lish shakllari tahlil qilinib, ilmiy asoslangan;

Hirot adabiy muhitida yaratilgan asarlarning tasavvufiy adabiyot bilan badiiy va mazmuniy bog‘liqliklari aniqlanib, adabiy ta’sir ko‘lami va shakllari tahlil qilingan;

islom ummati muallimlarining hadis va hikmatli so‘zlarini she’riy tarzda sharhlash an’analarining takomillashuvida ajdodlar merosining ta’siri aniqlanib, turli davrlardagi tarjimalar o‘rtasidagi tafovutlar qiyosiy o‘rganilgan;

tarjimon-shoirlarning hadis va hikmatlarning tarjimasi uchun qo‘llagan she’riy janrlari tahlil qilinib, ularning tarjimonlik mahorati baholangan hamda she’riy namuna asosida shakl va mazmun uyg‘unligi ko‘rib chiqilgan;

Alisher Navoiyning Ali ibn Abutolib hikmatli so‘zlarini sharhlashi jarayonida qaysi to‘plamdan manba sifatida foydalangani aniqlanib, ilmiy dalillar asosida isbotlangan;

tarjima asarlarining zamonaviy nashrlarida mavjud kamchiliklar tahlil qilinib, ularni bartaraf etish bo‘yicha aniq taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Olingan natijalarning ishonchliligi** tadqiqot yuzasidan chiqarilgan

xulosalarning o'rganilayotgan davr tarixiy-badiiy voqeligi hamda ilmiy kuzatuvning tarixiy-qiyosiy, qiyosiy-tipologik va matn tahlili usullariga asoslanganligi, muammoning aniq qo'yilganligi, birlamchi manbalardan foydalanilganligi, O'zbekistonda va xorijda soha mutaxassislari tomonidan olib borilgan izlanishlar, tadqiqot obyekti sifatida tanlangan asarlarning turli yillardagi nashrlari, shuningdek, ilmiy adabiyot va tarjima manbalariga tayanilgani bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati XV asrdagi tarjimachilik an'analari va xususiyatlari aniqlangani, tarjimachilik takomili muhim bosqichlari ko'rsatib berilganligi, tarjimachilikning o'zbek va fors-tojik adabiy aloqalariga ta'siri o'rganilganligi bilan belgilanadi. Shuningdek, shoirlarning hadislar va qisqa hikmatli so'zlarni nazmga solish an'analari taraqqiyotiga qo'shgan hissalar, ijod namunalarining o'ziga xos jihatlari aniqlashda ham katta ahamiyatga ega. Tadqiqot adabiy o'zaro ta'sir tarixini o'rganish uchun manba sifatida xizmat qiladi.

Tadqiqot materiallaridan tarjima nazariyasi va amaliyoti mutaxassislari, tarjimonlar, tilshunos, adabiyotshunos va tarixchilar tarjima nazariyasi va amaliyoti, matnshunoslik va qiyosiy adabiyotshunoslik fanlari uchun dasturlar, darslik va o'quv qo'llanmalar tayyorlashda, maxsus kurs va seminar mashg'ulotlarini tashkil qilishda foydalanishlari mumkin. Unda keltirilgan fikr-mulohaza va takliflar Alisher Navoiy asarlari borasida olib boriladigan tadqiqotlar uchun, ayniqsa, xorijda Alisher Navoiy ijodini o'rganish, navoiyshunoslikda o'zbek va fors-tojik olimlari tomonidan amalga oshirilayotgan ilmiy asarlar ahamiyatini belgilashda manba vazifasini bajaradi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Hirot adabiy muhiti tarjimachilik an'analari bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

Ijodiy vorisilik va tarjimon individualligi masalalariga oid xulosalardan Qo'qon davlat pedagogika institutida 2022-yilda bajarilgan AL-322103020 raqamli "Qo'qon adabiy muhiti ijodkorlari hayoti va ijodi bo'yicha web sayt va platforma yaratish" mavzusidagi amaliy loyihada foydalanilgan (Qo'qon davlat pedagogika institutining 2023-yil 28-iyuldagi 212-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, adabiy an'analarning turli davrlarda yashagan shoirlar ijodiyotiga ta'siri haqidagi ma'lumotlar yangilanishiga erishilgan. Tadqiqotda ilgari surilgan ilmiy natijalar har bir davr adabiyoti xususida atroflicha ma'lumot berishda xizmat qilgan;

"Nazmu-l-javohir" asarining manbasi, Fazl bin Hasan Tabrisiy (XII asr) tomonidan tuzilgan "Nasru-l-laoliy" to'plami va Ibn Sovajiy (XIV asr), Ashraf, Nadimiy (XV asr)ning she'riy tarjimalari qiyosiy tadqiqiga doir xulosalardan Davlat ilmiy-texnik dasturi doirasida 2020-2022-yillarda bajarilgan PZ-2020042022 raqamli "Turkiy tillarning lingvodidaktik elektron platformasi"ni yaratish loyihasida foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetining 2023-yil 1-avgustdagi 04/1-1442-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, bu davrdagi adabiy aloqalar, "Nazmu-l-javohir" uchun asl manba vazivasinin bajargan to'plam va tarjima-sharhlar haqida yanada kengroq tasavvur hosil bo'lishiga erishilgan. Ushbu tadqiqotda "Nasru-l-laoliy" asari kimning qalamiga mansub ekanligi, Navoiy Ali ibn Abutolib hikmatli so'zlarni qaysi manbadan foydalanib sharhlagani haqida aniq xulosalar berilgan;

tarjimon-shoirlarning Ali ibn Abutolib qisqa hikmatli soʻzlarini sheʼriy tarjima qilishda munosib janrlarni tanlash mahoratiga oid xulosalardan Respublika Maʼnaviyat va maʼrifat markazining 2023-yildagi chora-tadbirlar dasturining 34-bandida belgilangan “Yoshlar tarbiyasi va maʼnaviy-maʼrifiy ishlar samaradorligini oshirishda adabiyot, madaniyat, sanʼat namunalaridan keng foydalanishning artpedagogik asoslarini tadqiq qilish” mavzusidagi targʻibot ishlarini tashkil etish va oʻtkazishda foydalanilgan. (Respublika maʼnaviyat va maʼrifat markazi huzuridagi ijtimoiy-maʼnaviy tadqiqotlar institutining 2023-yil 19-iyuldagi 304-sonli maʼlumotnomasi). Natijada, adabiyotning tarbiyaviy ahamiyati haqidagi yangi maʼlumotlardan maʼnaviy-maʼrifiy tadbirlarda foydalanishga erishilgan;

Alisher Navoiy tazkirasi tarjimalari tufayli forsiy tazkiranavislikda yangi anʼanalar shakllanganligiga doir maʼlumotlar, talqin va xulosalardan “Oʻzbekiston tarixi” telekanalining “Manbalar soʻzlaganda”, “Buyuk siymolar”, “Sharq qoʻlyozmalari” koʻrsatuvlarining senariyalarini tayyorlashda foydalanilgan (Oʻzbekiston milliy teleradiokompaniyasi "Oʻzbekiston teleradiokanali" davlat muassasasining 2023-yil 1-avgustdagi 06-28-1042-sonli maʼlumotnomasi). Natijada, teleradiokompaniya ijodiy jamoasi badiiy tarjima tarixi, taraqqiyot bosqichlari haqidagi xulosalarni teletomoshabinlarga yetkazishi uchun zamin yaratilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijalari 5 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-nazariy anjumanlarida muhokamadan oʻtkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining eʼlon qilinganligi.** Tadqiqot mavzusi boʻyicha 13 ta ilmiy ish eʼlon qilingan. Shulardan Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta maqola, jumladan, 3 tasi respublika hamda 3 tasi xorijdagi ilmiy jurnallarda nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiyaning tarkibi kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati va ilovalardan tashkil topgan boʻlib, umumiy hajmi 137 sahifadan iborat.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning “**Kirish**” qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslanib, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, predmeti va obykti aniqlangan. Tadqiqotning Oʻzbekiston Respublikasi fan va texnologiyalar taraqqiyotining ustuvor yoʻnalishlariga mosligi koʻrsatilib, uning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon etilgan. Olingan natijalarning ishonchliligi asoslanib, ishning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan. Tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, aprobatsiyasi koʻrsatilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi “**Hirot adabiy muhitida tarjima harakati va uning oʻziga xos xususiyatlari**” deb nomlangan va uch faslni oʻz ichiga oladi. Bobning “**Badiiy tarjimada anʼana, taqlid va ijodiy vorisiylik**” tarzida nomlangan birinchi faslida tarjimonlik anʼanalari, taqlid va ijodiy vorisiylik masalalari xususidagi mulohazalar oʻrin olgan.

Asrlar davomida tarjimachilik sohasida o'ziga xos an'analar shakllangan. Yana ko'p uchraydigan tushunchalardan biri "taqlid"dir. Agar an'anaviy tarzda tarjimonlar salaflar tajribalaridan o'rganadigan bo'lsalar, taqlid ham vorisiylik qonuniyati natijasi o'laroq yuzaga kelsa, unda badiiy tarjimadagi vorisiylik nima degan savol tug'ilishi tabiiy. S.Olimning fikrlariga qaraganda, "an'ana – ancha keng, vorisiylik esa bir muncha muayyan hodisa" va "an'ana bilvosita o'tishi mumkin bo'lgan xususiyat, vorisiylik – bir tarjimadan ikkinchisiga bevosita o'tadi"<sup>11</sup>. Demak, vorisiylik deganda, biz "bir asarning muayyan tilga qilingan oldingi tarjimasidan keyingisiga meros tarzida o'tgan jihatlarini ko'zda tutamiz"<sup>12</sup>. Bu "jihatlar" so'zi orqali "asliyat ruhini qayta tiklash uchun topilgan ayrim usullar", tarjimadagi "masalaning o'zigacha bo'lgan yechimini meros qilib olish" kabi masalalar tushuniladi.

Tarjima asarlar o'rtasidagi vorisiy aloqadorlik, turli davrlarda yaratilgan asarning genealogiyasi (shajarasini)ni aniqlashtirish uchun matn tahlili alohida ahamiyatga ega. Bu murakkab va qiziqarli vazifa bo'lib, u nafaqat matn tarixini, balki o'zaro adabiy aloqalar tarixini, tarjimaning roli, vazifasi, o'tmishi va umuman adabiyotning rivojlanish tarixini ko'zdan kechirish imkonini beradi. Bu jarayonda alohida bir matnning tarjima qilinishi sabablari va qabul qiluvchi madaniyatga ta'sirini, asl matn muallifiga ta'sir ko'rsatgan manbalar, davr adabiy an'analari va tarixiy sharoitini, asl nusxaning janri, adabiy yo'nalishi, bu jihatlar tarjimada qay darajada adekvat yetkazilganini ham o'rganish lozim. Bunga ilova tarjimonning tarjimai holini, uning adabiy qarashlarini, til va madaniyatlarni bilishini, aynan shu asarni tarjima qilishdan maqsadini aniqlashtirish muhim. Bu uning oldiga qanday maqsadlar qo'yganini, asar transformatsiyasini va boshqa til muhitiga mo'ljallangan matn vujudga kelishiga qanday ta'sir qilganini tushunishga yordam beradi.

Bir asarning turli tarjimalarini o'rganish orqali esa har bir tarjimon qanday yechimlar topganligi, qaysi yondashuv yo strategiya (so'zma-so'z tarjima, erkin tarjima, moslashtirish va hokazo)dan foydalangani, madaniy farqlar, xos so'zlar, iboralar, uslubiy xususiyatlarni o'quvchiga yetkazishda o'z mahoratini qay darajada namoyish etganligini va tarjimaga kiritilgan o'zgarishlar, qo'shimchalar, tushirib qoldirilgan joylarni aniqlash mumkin. Biz, shuningdek, asl nusxa yangi madaniy muhitda asliyatdek idrok qilindimi, tarjima qabul qiluvchi tomon adabiyoti rivojiga, yangi adabiy oqimlar shakllanishiga ta'sir ko'rsatdimi, u boshqa ijodkorlarni ilhomlantirdimi, tarjima qabul qiluvchi madaniyat tilining rivojlanishiga, yangi so'zlar kirib kelishiga sabab bo'ldimi, tarjimaning keyingi "hayoti" qanday kechdi degan savollarga javob topishimiz lozim.

Bobning ikkinchi fasli "**Tarjimada tarjimon ijodiy individualligining namoyon bo'lishi**" deb nomlangan bo'lib, tarjimonning o'ziga xosligi, asl matnni moslashtirish, tarjimon shaxsiyatining tarjima jarayoniga ta'siri xususidadir.

Hiroat adabiy muhiti namoyandalari o'z asarlarida asliyat matniga nima sababdan o'zgartirishlar kiritganlarini sharhlaganlar. Albatta bu tarjima oldiga qo'yilgan "vazifa", "maqsadli harakat" (K. Nord) natijasidir. Ayrim namunalarni

---

<sup>11</sup> Олимов С., Матёкубов А. Лермонтовнинг ўзбек таржimonлари. – Т.: Фан, 1989. Б. – 19.

<sup>12</sup> O'sha manba, o'sha bet.

ko'zdan kechirib, tarjimonning umri davomida to'plagan tajribalari, uning dunyoqarashi, qadriyatlari, diniy e'tiqodi va boshqa shaxsiy xususiyatlari tarjima asarga ta'sir qilganiga amin bo'lamiz. Tarjima ishiga ijodiy yondashgan tarjimonlar o'tmishda hammuallifga o'xshab, asl matnni boshqa til va madaniy muhitga moslashtirganlar. Bir adabiy asar turli tarjimonlar tomonidan tarjima qilinganda bir-biridan farq qiladigan tarjimalarni ko'rishimiz mumkin. Bu orada faqat tarjimon o'zgargan, xolos. Bu jarayonda eng kuchli ta'sir qiladigan omil tarjimonning shaxsiyati va uning o'z oldiga qo'ygan maqsadidir. Tarjimon individualligi Koshifiyning "Anvori Suhayliy" nomi bilan amalga oshirgan "tahzibi"da ham ko'zga tashlanadi.

"Anvori Suhayliy" muallifi Husayn Voiz Koshifiy va "Kalila va Dimna"ni arab tilidan fors tiliga tarjima qilgan Munshiy Sheroziyning maqsadlari farq qilardi. Munshiy oldingi tarjimalarda ayrim tarjimonlarning tarbiyaviy ahamiyatga ega matnga noto'g'ri munosabatda bo'lganlarini tanqid qilib, yangi variantda yo'l qo'yilgan xatolarni tuzatish, matnni yanada jozibaliroq qilishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan bo'lsa, Koshifidek mashhur voizga asarni muayyan tartibga solingan mav'izalar shaklida taqdim qilish muhimroq edi. Xuddi shunday Abdulloh ibn Muqaffa va tabib Barzuya ham xos maqsadlarga erishish payidan bo'lganlar. Asarning pahlaviy tilidagi tarjimasiga tarjimonning o'zi yo vazir Buzurgmehr tomonidan ilova qilingan boblar bo'lmaganida tabib Barzuya haqida, uning dunyoqarashi, Haqni izlab yo'lga chiqqan solikka xos izlanishlari, falsafasi haqida boshqa joydan ma'lumot topib bo'lmasdi.

XV asrda yashagan hirotlik ijodkorlar tomonidan amalga oshirilgan boshqa talqinlar, talxislarni ham qadimiyroq namunalar bilan qiyoslab, bu davr vakillari ajdodlar merosiga ijodiy yondashganliklariga guvoh bo'lamiz. Masalan, A. Mirzoyev mashhur "Yusuf va Zulayxo" dostoni (Jomiy) Qur'on sharhlaridan biri bo'lgan Atiq Nishopuriyning "Tafsiri Surobody" kitobidagi qissaga yaqinroq<sup>13</sup> va Ye. Bertels "Jomiy dostonining manbalari masalasini hal qilish uchun Ansoriyning "Anisu-l-muridin va shamsu-l-majolis" asarini jalb qilish zarurligi"ni takidlagan<sup>14</sup> bo'lsalar-da, qiyosiy tahlil Jomiy asari faqat ayrim jihatlarni hisobga olmaganda hech bir qur'oniy tafsirga o'xshamasligini, bu asarda u individualligini to'la namoyish etganini ko'rsatdi. Yoki Ye. Bertels "Lisonu-t-tayr" asariga kiritilgan 63 ta hikoyadan faqat 12 tasi "Mantiq-u-t-tayr"ga tegishli ekanligini aniqlagan va qolgan hikoyalar Attorning "Tazkiratu-l-avliyo" yo boshqa asarlardan olinganini taxmin qilgan<sup>15</sup>. Shunday usulda bu namunalarining ham asl matn va boshqa asarlar bilan genetik aloqadorligini, qaysi qismi tarjima, sharh (interpretatsiya) yo ijodkorlik ekanligini aniqlash mumkin.

Boshqacharoq qilib aytganda mazkur davrda adabiy merosga ijodiy munosabat odatiy bir hol bo'lgan. Bu davrda amalga oshirilgan badiiy tarjima namunalaridan Jomiyning "Nafahotu-l-uns" va Navoiyning "Nasoyimu-l-muhabbat" asarlarini ham

<sup>13</sup> Ахрорӣ З. Достони ҳасрат ва васлат./ Абдурахмони Чомӣ. Юсуф ва Зулайхо (достон). – Душанбе: Адиб, 2014. – 264 с.

<sup>14</sup> Ворожейкина Н. Вставные рассказы в романе Абдаллаха Ансари "Друг послушников и солнце маджлисов". – "Палестинский сборник", № 21. М.: 1970. – С. 4–15.

<sup>15</sup> Бертельс Е.Э. Навои и 'Аттар/ Бертельс Е.Э. Избранные труды. Суфизм и суфийская литература. – М.: Наука, 1965. – С. 377 – 420.

olib qaraydigan bo‘lsak xuddi shunday manzaraga duch kelamiz. Bu asarlar vujudga kelishiga Sullamiy Nishopuriy va Ansoriy Hiraviylarning “Tabaqotu-s-sufiya” tazkiralari poydevor vazifasini bajarganini rad qilib bo‘lmaydi. Lekin agar Sullamiy asarini o‘qish jarayonida o‘quvchi tarixiy asarni o‘qiyotgandek taassurot hosil qilsa, Ansoriy asosan muridlariga ta’lim berish uchun so‘fiylik va tariqat ahli rusum-odatlariga diqqat qaratgan va Atorning tazkirasida badiiyat kuchli bo‘lsa, Jomiy dalil (argument)lar keltirish usulni ma’qul ko‘rgan. Navoiy asosan Jomiy asaridan foydalangan bo‘lsa-da, uning oldida boshqa vazifa turgandi. Jomiyning “Chihil hadis”, Navoiyning “Qirq hadis”, “Nazmu-l-javohir” kabi asarlarida ham ajdodlar merosini saqlagan holda uni boyitishga qaratilgan harakatlarni mushohada qilamiz

Bobning uchinchi fasli **“Tasavvufiy meros va uning badiiy tarjima rivojlanishiga ta’siri”** tarzida nomlangan bo‘lib, XV asrda so‘fiylik adabiyoti ta’sirida yaratilgan asarlarning xos jihatlari haqidadir. Hirot adabiy maktabi ijodkorlarning nafaqat dostonlari, nasriy asarlari, hatto arabiy hadislar she’riy tarjimalari bo‘lgan Jomiyning “Chihil hadis”, Navoiyning “Qirq hadis”, “Nazmu-l-javohir” kabi asarlarni ham tasavvufiy meros ta’sirida yaratilgan asarlar qatoriga qo‘shishimiz mumkin.

So‘fiylarning hadislarni to‘plam holiga keltirishga bel bog‘lashlariga ularning o‘z oldlariga qo‘ygan maqsadlari turtki bo‘lgan. Birinchidan, so‘fiylar o‘zlarini sahobalar va ilk zohidlar qatoriga qo‘shardilar. Attor tuzgan tazkirada Hasan Basriy “Payg‘ambar va sahobayi kiromlardan tarbiya topgan”, “amir ul-mo‘minin Aliga irodat qilib, tabarruk firqani undan olgan” mazmunidagi ma’lumotlar berilgan<sup>16</sup>. Yoki “Nafahotu-l-uns”da Shayx Majduddin Bag‘dodiyning “Tuhfat ul-barara” asaridan iqtibosan “xirqalar nisbati muttasil”ligi (Payg‘ambar va Alidan boshlanib to Shayx Najmiddin Kubro va o‘zigacha) sharhi<sup>17</sup> va “Nasoyimu-l-muhabbat”da qisqartirilgan tarjimasi mavjud<sup>18</sup>. Ikkinchidan, so‘fiylarning boshqa guruhi bid’atda ayblanib qolmaslik uchun unchalik ishonchli bo‘lmagan hadislarni ham Payg‘ambar (sav)ga tegishli degan xayol bilan o‘z asarlariga kiritganlar. Ular gohida ayrim hadislarni o‘z aqidalariga moshlashtirganlar va o‘zlari tushungandek sharhlaganlar. Buning natijasida so‘fiylar asarlarida turli mavzulardagi hadislarni uchratamiz. Hatto tadqiqotchilar fikriga qaraganda, ayrim so‘fiylar “aksar qismi oldingi shayxlar va hakimlarga tegishli so‘zlarni hadis deb o‘ylaganlar”<sup>19</sup>.

XV asrda Payg‘ambar (sav) hadislari bilan birga shia mazhabi imomlarining so‘zlarini hadis shaklida naql qilish, to‘plam tuzish va nazmga solish an’anasi shakllanadi. Shu davrda Naqshbandiya tariqatidagi Jomiy va Navoiy, Suhravardiya tariqatidagi Abdulloh Qutb Sheroziy hadislarni she’riy sharhlagan bo‘lsalar, Shohne’matulloh Valiy tariqatidan bo‘lgan Shohdoiyy Sheroziy (1399 – 1459) “Tarjumatul-axbora-l-alaviya” nomi bilan Ali ibn Abutolibdan naql qilingan qirqta

<sup>16</sup> Attor, Fariduddin. Tazkirat ul-avliye. – T.: Faful Fulom nomiдаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2012. – 464 б.

<sup>17</sup> Мавлоно Абдурахмони Чомй. “Нафахот-ул-унс мин ҳазарот-ул-қудс”. – Д.: Пажӯҳишгоҳи фарҳанги форсӣ-тоҷикии Сафорати ҚИЭ дар Тоҷикистон, 2013. – С. 690.

<sup>18</sup> Навоий, Алишер. Тўла асарлар тўплами : 10 жилдлик. – Т.: Faful Fulom nomiдаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2011. – Б. 422.

<sup>19</sup> احسان پورابريشم. اربعين نگاری صوفيان : بررسی و تصحيح اربعينات منظوم از قطب محيي كوشتناری. نشریه آينه ميراث « دوره 20، 2011، شماره 1 (بهار و تابستان 1401). – ص. ۱۹۹-۲۳۰.

hadislarni ruboiy janrida nazmga solgan. Shia mazhabida hadis atamasi Ali (a) soʻzlariga nisbatan ham ishlatiladi. Oʻsha davrda Ali ibn Abutolib hikmatlaridan iborat Ibn Sovajiy, Ashraf Marogʻaiy va Nadimiyning sheʻriy sharhlari vujudga kelgani ham shu anʻana davomidir. XV asrda tuzilgan toʻplamlarda ham salaflar izidan borish va ham ular merosini tanqidiy koʻrib chiqish, gohida uzoqlashish holatlarini mushohada qilishimiz mumkin. Vorisiylikda bu tabiiy jarayon.

Aniq misollar asosida fikrimizni davom ettiradigan boʻlsak, Jomiyning “Chihil hadis”ini bir qator toʻplamlar bilan qiyosiy oʻrgangan F. Kamolov xulosalariga qaraganda, Jomiyning asari koʻproq Sullamiy tominidan arab tilida tuzilgan toʻplamga oʻxshaydi<sup>20</sup>. Haqiqatdan ham Jomiy sharhlangan hadislarning maʼlum bir qismi Sullamiy toʻplamida mavjud hadislarga mazmunan oʻxshash. Lekin Jomiy asarini mazkur toʻplam asosida vujudga kelgan sheʻriy sharh deb boʻlmaydi. Sullamiy toʻplamida “boylar bilan oʻtirmaslik”, “raqs”, “samo” “shayxlarga xizmat qilish”, “taom yemoq”, “avliyo muʼjizalari” va shunga oʻxshash boshqa hadislar ham borki, ularni Jomiy sharhlarida topolmaymiz<sup>21</sup>.

Ilk bor B. Valixoʻjaev “Qirq hadis” va “Nazmu-l-javohir” asarlari oʻrtasidagi aloqadorlikni aniqlab, Navoiy “xuddi shunday xildagi tarjima-sharhlarni... “Nazmu-l-javohirda” davom ettirib”, oldingi asarga “kiritilmagan hadislarni sharhlab, oʻquvchilarni bahramand etgan”ligini taʼkidlagani diqqatga sazovor va u Jomiy va Navoiyning qitʼa janridagi sheʻriy tarjimalariga nisbatan “tarjima-sharh” istilohini qoʻllashni maʼqul koʻrgan<sup>22</sup>.

Tadqiqotning ikkinchi bobi **“Hadis va hikmatlarni sheʻriy tarjima qilish anʼanalari”** deb nomlangan va uch faslni oʻz ichiga oladi. **“Sheʻriy tarjima-sharhlar manbalarini aniqlash muammolari”** deb nomlangan birinchi faslida hadis va hikmatlarning sheʻriy sharhlari manbalarini aniqlash, “Nazmu-l-javohir”ni nashr etish, kitobxonlarga taqdim etish maqsadida olimlarimiz tomonidan olib borilgan tadqiqot ishlari haqida mulohaza yuritilgan. “Nazmu-l-javohir” muqaddimasida qisqa hikmatli soʻzlar toʻplami tuzuvchisi haqida emas, ismi nomaʼlum “nozim”ga ishora qilingan.

Jomiy asarining ahamiyatini hisobga olib, Navoiy turkiy tilga oʻgirishga qaror va bevosita asl manbani koʻrsatgan. Shuni alohida zikr etish kerakki, sheʻriy tarjimada soʻzlar, misralar oʻrin almashishi, ayrim soʻzlar tushib qolishi, qoʻshilishi, sinonim, antonim soʻzlar ishlatilishi tabiiy hol. Bunga ilova aruz vazni va qofiyaning oʻz talablari bor. Gohida shoir bir misradagi mazmunni boshqa soʻzlar bilan sharhlashga qaror qiladi va qofiya uchun izlab topilgan soʻz maʼno oʻzgarishiga taʼsir koʻrsatishi mumkin. Lekin shunga qaramay Navoiy aksar hollarda asliyatga sodiq qolishga harakat qilgani eʼtiborni oʻziga tortadi. Shu sababdan “Arbaʼin”lar “badiiy tarjimalardan farq qiladi, chunki bunda shoirlar diqqat eʼtiborlarini asliyatdagi sheʻrga emas, balki unga manba boʻlgan hadisga

<sup>20</sup> Камолов Ф. “Чихил ҳадис”-и Абдурахмони Ҷомӣ ва арзишҳои адабии он. – Хучанд: Ношир, 2014. – С. 141. – 188 сах.

<sup>21</sup> مسلمى ابو عبدالرحمن. كتاب الأربعين للصوفية/ مجموعه آثار أبو عبد الرحمن سلمى. جلد ۳. گرد آوری نصرالله پورجوادی و محمد سورى. تهران: مؤسسه پژوهشی حکمت و فلسفه ایران، 1389. ص. ۲۷۵.

<sup>22</sup> Валихўжаев Б. “Арбаъин ҳадис” ва унинг таржималари \\\\ Алишер Навоийнинг адабий маҳорати масалалари. – Т.: Фан, 1993. – Б. 126 – 135.

qaratadilar” mazmunidagi xulosalar unchalik to‘g‘ri emas<sup>23</sup>. Mazkur tadqiqotda Jomiyning sharhlari ham qo‘shib tarjima qilinganligiga e‘tibor berilmagan. Albatta ba’zi hadislar sharhida Navoiy ijodiy yondashgan.

Mustaqillikdan keyin “Nazmu-l-javohir” asarini nisbatan mukammalroq o‘rgangan M. Rajabova mazkur asarni ilmiy jihatdan o‘rganish, nashr etish va kitobxonga tanishtirish uchun olib borilgan tadqiqotlar atrofida to‘xtalib, bu jarayonda yo‘l qo‘yilgan ayrim xatolar sifatida ko‘rsatgan<sup>24</sup>. Mazkur tadqiqot ana shu xatolarni tuzatishga qaratilgani bilan e‘tiborni o‘ziga tortadi. Rajabova tadqiqotida hikmatlar tarjimasi qiyosiy tahlil natijasida shu narsa ayon bo‘lganki, “Alisher Navoiyning “Nazmu-l-javohir” ruboiylar turkumini Al-Johiz to‘plami bilan faqatgina arabiy hikmatlar birlashtirib turadi” va “Rashididdin Vatvot asari bilan “Nazm ul- javohir” o‘rtasida esa ayrim shakliy-uslubiy belgilar jihatidan umumiylik ko‘zga tashlanadi, xolos”. Uning fikrlariga qaraganda, “Nasru-l-laoliy” degan nomni Ali ibn Abutolib emas, “mashhur olim va adib Al-Johiz tomonidan qo‘yilgan” “XIII asrda Rashididdin Vatvot bu to‘plam tarkibidan yuzta himatni ajratib olgan, ularning yoniga o‘zining forsiy she‘riy talqinini qo‘shib, uni boyitgan. Ammo asarning an‘anaviy nomi “Nasru-l-laoliy”ni saqlab qolgan”<sup>25</sup>. U shuningdek, “Hazrat Ali hikmatli so‘zlarining “Nazm ul-javohir”gacha yetib kelish yo‘li”ni tasvirlab berishga uringan. Xullas, u qiyosiy tahlil uchun manba tanlashda adashgan.

“Nazmu-l-javohir” muqaddimasida hikmatli so‘zlar to‘plami tuzuvchisi haqida emas, ismi noma‘lum “nozim”ga ishora qilingani haqida yuqorida so‘z yuritildi. Sharhlar qiyosiy tahlili “Nazm-ul-javohir”dagi 45-, 48-, 75-, Ibn Sovajiyning “Durratu-l-maoliy” asaridagi 46-, 49- hikmatlar Ashraf Marog‘aiy, Nadimiy tarjimalarida mavjud emasligini ko‘rsatdi. Shular va hikmatlar sonini nazarda tutib, Navoiy “burung‘i nozim” deb Ibn Sovajiyning nazarda tutgan bo‘lishini taxmin qilishimiz mumkin. Hikmat tarjimasini to‘rtinchi misrada berish esa Ashraf va Nadimiy asarlariga o‘xshash. Original va tarjimalar o‘rtasidagi mutanosiblikni qo‘yidagi shaklda ko‘zdan kechiramiz:

Tabrisiy “Nasru-l- laoliy” (313 ta)	Ibn Sovajiy “Badrat ul- maoniy” (263 ta)	Ashraf “Nazmi nasru-l-laoliy” (290 ta)	Nadimiy “Ganji guhar” (292 ta)	Navoiy “Nazmu-l- javohir” (268 ta)
100 %	82,3	90,7	91,6	83,8

Mazkur **bobning ikkinchi fasli “Janrlar tanosubi va tarjimon mahorati”** deb nomlangan. Har bir she‘riy janr (qit‘a, fard, ruboiy, masnaviy va hokazo)ning o‘ziga xos xususiyatlari va talablari bor. Bu ikki unsur she‘rning ta’sirchanligini oshiradi va shoir-tarjimonning fikri aniq yetkazilishiga yordam beradi.

<sup>23</sup> Пулатова М. Шарк мумтоз адабиётида “Арбаъин” ёзиш анъаналари (Жомий, Навоий ва Фузулий асарлари мисолида). Автореферат. –Тошкент, 2020. – 59 б.

<sup>24</sup> Ражабова М. Алишер Навоийнинг шеърининг дурдонаси. – Т.: “Фан” нашриёти, 2008 йил. – Б. 7.

<sup>25</sup> Ражабова М. Алишер Навоий «Назм ул-жавоҳир» асарининг манбалари ва бадиияти. Диссертация. – Самарқанд, 2006 йил. – Б. 21



qofiyalanishi ruboiyning an'anaviy qofiyalanishidan farq qiladi<sup>26</sup>. Hatto ikki misralik tarjimalari ham bor. Nadimiy tarjimasining yana farqi shundaki, u arab hikmatlarini ham nasrda, ham nazmda tarjima qilgan. Unda Ashrafga o'xshab hikmat tarjimasi to'rtinchi misralarda berilganini ko'ramiz. Navoiy she'riy tarjimada ruboiy janrini tanlagan. 268 ruboiydan 221 tasi radifli bo'lib, shundan 33 tasi ikki so'zli, 188 tasi bir so'zli radiflar, 47 ta ruboiy esa radifsizdir<sup>27</sup>. U ham o'z sharhidan so'ng hikmat tarjimasini berishda xuddi shunday yo'l tutgan:

5. Oltin-kumush etma kasb davlat kunidin

Kim tortar adab ulusni mehnat tunidin.

Gar yo'qtur adab, ne sud oltun unidin,

**Elning adabi xushroq erur oltunidin.**

Mazkur bobning so'nggi fasli **"Hayotiy hikmatlar va ularning she'riy tarjimalardagi in'ikosi"** deb nomlangan. Amaliy hikmat falsafaning ikki asosiy yo'nalishidan biri bo'lib, u insonlar o'z kundalik hayotida, ijtimoiy, axloqiy, siyosiy munosabatlarida rioya qilishlari kerak bo'lgan qoidalar va tamoyillarni o'rganadi. Dunyo va tabiatni anglash, tushunishga qaratilgan nazariy hikmatdan farqli ravishda amaliy hikmat ko'proq insonning xulqi, amallari hamda shaxsiy-jamoaviy hayotiga e'tibor qaratadi. Amaliy hikmat uchta asosiy qismga bo'linadi:

1. Axloq (axloq ilmi);

2. Tadbiru-l-manzil (xonadonni boshqarish);

3. Siyosatu-l-mudun (jamiyat boshqaruvi).

Tabiiyki, payg'ambar hadislar va diniy peshvolar hikmatlarida bu masalalar ilohiy kalom, islomiy nuqtayi nazardan bayon qilingan va shu jihati bilan farq qiladi. Islomiy dunyoqarashda "jabr" va "ixtiyor" masalalari borligini eslatib o'tishimiz lozim. Taqdirga qarshi tadbir qilib bo'lmasligi barobarida inson axloqiy sifatlarga ega bo'lishi mumkinligi, o'zini tarbiyalashi, oila va jamiyat ishlarini boshqarishda oqilona yo'l tutishi lozimligi, nihoyat saodatga erishishi imkoni borligi bashorat qilingan. X asrdan XV asrgacha yaratilgan adabiy namunalarda ham mazkur mavzularga bag'ishlangan ko'plab misollarni topishimiz mumkin. Darhaqiqat, hadislar va hikmatlar tarjima-sharhlaridagi o'xshashliklar yaqqol nazarga tashlanadi. Hirot adabiy muhiti vakillari o'z zamonlarida amaliy hikmatning islomiy ko'rinishda avloddan-avlodga o'tishiga katta hissa qo'shganlar.

"Arbain"lar va "Nasru-l-laoliy"ning tarjima-sharhlarini o'zaro solishtirganimizda bir xil mazmundagi fikrlarning turlicha bayonini mushohada qilamiz. Chunki ular ilohiy kalomdan ilhom olganlar va islom imomlari Payg'ambar (sav) boshlab bergan yo'lning davomchilari edilar. Tarjima-sharhlar mualliflari ham hikmat tarjimalari orqali islom peshvolari da'vatlari kengroq yoyilishi uchun xizmat qilganlar. Hadislar va hikmatlar tarjima-sharhlarida xasislik, ochko'zlik, mol-dunyoga hirs qo'yish, chaqimchilik va boshqa salbiy illatlar qoralangan va aksincha

---

<sup>26</sup> گنج گهر (ترجمه منظوم نثر اللئالی). به کوشش سید جعفر حسینی اشکوری. نشریه میراث حدیث شیعه. دفتر هشتم. صفحات: از 22 تا 145.

<sup>27</sup> Рашидова М. Алишер Навоий «Назму-л-жавоҳир» асарининг матний тадқиқоти. – Т.: «Mumtoz so'z», 2011. – Б. 12.

qanoat, adolatparvarlik, shukr qilish, saxovat ko‘rsatish, va’daga vafo, boshqalarga madad qo‘lini cho‘zish kabi fazilatlar ulug‘langan.

Nazmga solingan hadis va hikmatlar ichida ilm o‘rganishga da’vat, oila a’zolariga odob o‘rgatish zarur ekanligi ta’kidlangan hikmatlar ham uchraydi. Quyidagi sharhga e’tibor bering:

Ashraf	Nadimiy
<p>3. Gar ayoli tu beadab boshad, Hosil az vay turo taab boshad. Adab omo‘z mar ayolatro, To az o‘ naf’ boshadat hama jo.</p> <p><b>Mazmuni:</b> Oilang odobsiz bo‘lsa, Uning hosili senga azob bo‘ladi. Hamma joyda senga foyda keltirishi uchun, Oilangga odob o‘rgat.</p>	<p>5. Gar chu jonat aziz buvad ayol, Nest hikmat ba noz parvardan, To biyoband naf’ adabshon kun, Hast lutf in tariq ozurdan.</p> <p><b>Mazmuni:</b> Oila joningdan aziz bo‘lsa-da, Erkalatib yuborish hikmatdan emas. Foyda ko‘rishlari uchun adab(lari)ni ber, Bunday ozor bermoq iltifotdir .</p>

Ashraf birinchi va ikkinchi misralarda “oila a’zolarining odobsizligi kishiga azob keltiradi” degan shaxsiy xulosalarini va uning tasdig‘i sifatida uchinchi va to‘rtinchi misralarda hikmat tarjimasini bergan bo‘lsa, Nadimiy hikmat tarjimasini uchinchi misrada bergan va erkalatish noto‘g‘ri ekanligini, hatto ozor berish yo‘li bilan bo‘lsa-da adab berish zarurligini ta’kidlagan. Shu jihati bilan Nadimiy sharhi farq qiladi. Navoiyning “Har necha adab bo‘lsa, qatig‘ yetkurgil” misrasida ham shunga ishora qilinganga o‘xshaydi. Chunki samarasi yo foydasi – “asig‘” muhim. Ibn Sovajiy esa hikmatni aynan tarjima qilib, nazmga solgan:

Ibn Sovajiy	Navoiy
<p>5. Ayolatro adab omo‘z doim, Buvad sude dar on payvasta lozim.</p> <p><b>Mazmuni:</b> Oilangga odob o‘rgat, Undan doim foyda ko‘rasan.</p>	<p>4. Topting chu ayol yaxshiliq yetkurgil, O‘rgat adabu yaxshi qiliq yetkurgil, Har necha adab bo‘lsa, qatig‘ yetkurgil, Xaylingg‘a adab qilib asig‘ yetkurgil.</p>

Dissertatsiyaning uchinchi bobi “**Tarjima asarlar nashridagi muammoli masalalar**” tarzida nomlangan va ikki faslni o‘z ichiga oladi. “**Hikmatli so‘zlarni hozirgi zamon o‘zbek tiliga tarjima qilishda nazmiy sharhlarning ahamiyati**” deb nomlangan faslida Ali (a) o‘gitlarini hozirgi o‘zbek tiliga tarjima qilish masalasiga bag‘ishlangan. Qisqa hikmatlar, “kalimoti qassor”, yo aforizmlar tarjimasini o‘z xususiyatlariga ega va tarjimondan hikmat ma’nosini iloji boricha aniqroq yetkazish va uni shaklini saqlab qolishga harakat qilish talab etiladi. Ayrim holda tarjimondan qo‘shimcha sharhlashni talab etishi mumkin. Tarjima-sharhlar qiyosiy tahqiqi jarayonida shu narsa ayon bo‘ldiki, nozimlar bu masalaga turli xil yechim topganlar. Endi ularning tajribasi mazkur hikmatlarni hozirgi o‘zbek tiliga

tarjima qilishimizga yordam beradi. Nadimiydan tashqari boshqa nozimlar hikmatning arabiy shaklini keltirish bilan kifoyalangan bo‘lsalar-da aksar hollarda uchinchi va to‘rtinchi misralarda hikmatlar tarjimalarini topish imkoniga egamiz. Nozimlar o‘z sharhlarida turli hayotiy xulosalarini ilova qilgan bo‘lsalar-da hikmat tarjimasida asl matnga sodiq qolishga harakat qilganlar.

“Nazmu-l-javohir” nashrlarida hozirgi o‘zbek tilida o‘g‘irilgan ayrim hikmatlar tarjimalari qayta ko‘rib chiqish zarur. Gohida o‘quvchi hikmat va sharh o‘rtasidagi aloqadorlikni topolmay qolishi mumkin. Aniq misollarga murojaat qiladigan bo‘lsak, “Nazmu-l-javohir”dagi 1- hikmatli so‘z tarjimasi bo‘lgan Navoiyning misrasi ikki nashrda ham “Iymonini bilki, otidin zohir erur” shaklida kiril va keyinchalik lotin alifbosiga o‘g‘irilgan. M. Rashidova esa asarning tanqidiy matni nashrida qo‘lyozmalarda “ontidin” varianti ham borligiga ishora qilgan bo‘lsa-da, bu misrani kiril alifbosiga “Iymonini bilki, so‘zidin zohir erur” shaklida tarjima qilgani ma’nosini tushunarliroq qilmoqchi bo‘lganidan dalolat beradi<sup>28</sup>. A. Qayumov esa 20 jildlik nashr asosida “Nazm ul-javohir”dagi hikmatlar va qit’alarni sharhlashi jarayonida ushbu misrani “Kim sof imon egasi bo‘lsa, bu uning otidan anglashilib turadi” mazmunidagi so‘zlar bilan sharhlaganki o‘quvchida shubha uyg‘onishi tabiiy<sup>29</sup>. Chunki insonning ismidan “sof imon egasi” ekanligini anglab bo‘lmaydi. Bu misra “Iymonini bilki, otidin zohir erur” shaklida berilganda maqsadga muvofiq bo‘lar edi.

Keyingi 7- “Yomonga yaxshilik qilish bilan uni qaytargan bo‘lasan” deb tarjima qilingan hikmatni ko‘rib chiqamiz. M. Rashidovada tarjimasida “Zolimga yaxshilik ko‘rsatishing seni saqlaydi” shaklida berilgani ham biroz hayron qoldiradi. Lekin Navoiy she’riy tarjimada “sarafruz” so‘zini ishlatganki, yuqoridagi tarjimalarda topolmaymiz. Albatta bu so‘zdan Navoiy faqat qofiya uchun foydalanmagan:

Gar xasm jafosidin sarandoz o‘lg‘ung,  
Doim taabu alamg‘a anboz o‘lg‘ung,  
Sen lutf etib agar navosoz o‘lg‘ung,  
Bu vajah bila anga sarafruz o‘lg‘ung.

Bu hikmat “Senga yomonlik qilganga yaxshilik qilsang, (shu vajah bilan) uning buyugiga aylanasan” yo A. Qayumovga o‘xshab “ (...Javoban) lutf etib agar yaxshilik qilsang, shu sabab bo‘lib undan ustun chiqasan” deb tarjima qilinganda, to‘g‘riroq bo‘lar edi. Umuman olganda, hozirgi o‘zbek tilidagi bir qator hikmatlar tarjimalari qayta ko‘rib chiqilishi lozim. Hikmatning hozirgi o‘zbek tilidagi tarjimalari aniq chiqsa, o‘quvchining hikmat va sharh o‘rtasidagi aloqadorlikni tushunishi, she’riy tarjima va sharh qanchalik muvaffaqiyatli chiqqanligini baholashi osonroq bo‘ladi. “Nazmu-l-javohir”ni boshqa nazmiy tarjimalar bilan qiyosiy o‘rganish bu asarda arab tilida berilgan qisqa hikmatlarni chuqurroq tushunishimizga imkon beradi.

<sup>28</sup> Рашидова М. Алишер Навоий “Назму-л-жавоҳир” асарининг матний тадқиқоти. – Т.: “Mumtoz so‘z”, 2011. – 132 б.

<sup>29</sup> Қаюмов А. Шеър дурдоналари. / Қаюмов А. Дилкушо такрорлар ва рухафзо ашъорлар. – Т.: “Sharq”, 2014. – Б.92.

Bobning ikkinchi fasli **“Tarjima asarlar nashrlarini amalga oshirishdagi muhim masalalar”** deb nomlangan va tarjima asarlarni nashr etish masalalariga e’tibor qaratilgan. Hirot adabiy muhitida amalga oshirilgan badiiy tarjima namunalari haqida gap ketganda olimlarimizdan B. Valixo‘jayev, S. Olim “tarjima-sharh”, “tarjima-nazira” istilohlaridan foydalanganlar. Bu tadqiqotda esa “tarjima-ta’lif” istilohidan foydalanildi. Bundan maqsad ijodkorning ajdodlar adabiy merosiga ijodiy yondashuvi, individualligi, uning qo‘shgan hissasi va an’anani rivojlantirish uchun qilgan xizmatlarini ta’kidlashdir. Ammo bu davrda amalga oshirilgan badiiy tarjima namunalari tadqiq etish, o‘quvchilarga taqdim etish va nashr etishda ayrim muammolar borligi aniqlandi. Aynan nashr nusxalariga e’tibor qaratilishining o‘ziga xos sabablari bor. “Nazmu-l-javohir”ning nafaqat sobiq sho‘rolar davridagi nashrlarida, balki shu nom bilan EIRda chop etilgan bir nashrda ham o‘zboshimchalikka yo‘l qo‘yilgan. Husayn Voiz Koshifiyning “Anvori Suhayliy”, Abdurahmon Jomiyning sobiq sho‘rolar davrida nashr etilgan “Nafahotu-l-uns”, Alisher Navoiy tazkirasi forsiy tarjimalari nashrlarida ham shunday kamchiliklar ko‘zga tashlanadi. Bu o‘z navbatida mazkur asarlar haqida olib borilgan tadqiqotlarga ta’sir etmasdan qo‘ymagan.

1387/2008-09-yilda Tehronda “Alhudo” xalqaro nashriyoti tomonidan Ali ibn Abutolib hikmatlarining fors, ingliz, rus, o‘zbek tilidagi tarjimalardan va 88 betdan iborat “Nazmu-l-javohir” nomli yangi kitob nashr qilingani yaxshi bir xabar sifatida baholangandi. Ammo “Nazmu-l-javohir” nomi bilan nashr qilingan kitobda “Nasru-l-laoliy” to‘plamidan olingan hikmatlarning fors, ingliz, rus, o‘zbek (rus va o‘zbek tilidagi tarjimalar kiril alifbosida) tilidagi tarjimalari berilgan va asarning nomi, Navoiyning qisqartirilgan muqaddimasi va hikmatlar tarjimasini hisobga olmaganda Navoiy asari bilan boshqa umumiylik mavjud emas. Navoiyning asari Ali (a) hikmatlarining turkiy tildagi eng qadimiy sharhi sifatida tilga olinadi va aynan shu asar ko‘z oldimizga keladi. Shu sababdan “Nasru-l-laoliy” tarjimalariga Navoiy yozgan muqaddimani ilova qilib, “Nazmu-l-javohir” nomi bilan nashr etilganligi to‘g‘ri qaror bo‘lmagan.

Husayn Voiz Koshifiyning “Anvori Suhayliy” asari nashri bundanda g‘alatiroq. MDH mamlakatlarida shu nomdagi asar yo uning boshqa tildagi tarjimasini nashr etilganini busatrlar muallifiga noma’lum. Ammo sovetlar ittifoqi oxirgi yillaridagi asar nashrida nomini “Kalila va Dimna”, muallifi sifatida esa Koshifiy ko‘rsatilishi sabablarini tushunish qiyin. Asarni nashrga tayyorlagan R. Hodizoda muqaddimada “Anvori Suhayliy” haqida va Koshifiy asari “badiiyat jihatidan notiqlik san’atining oliy darajasida amalga oshirgani” haqida ma’lumot bergan<sup>30</sup>. Mazmuni diniy va odob doirasidan tashqari bo‘lgan hikoyalar, Abulmaoliy Nasrulloh “Kalila va Dimnaya Bahromshohiy” asarida mavjud bo‘lmagan, Koshifiyning falsafiy, tasavvufiy va siyosiy-ijtimoiy mavzularga doir shaxsiy qarashlari, qazo va qadar, diniy muhokamalarga bag‘ishlangan 14 bob olib tashlanganini ateistik bosim ta’siri deb qabul qilish mumkindir. Ammo Koshifiyning salafi asarini tartibga solish uchun har bir bob mazmunidan kelib chiqib yangi nom berganini hisobga olmasdan, Abulmaoliy Nasrulloh arab tilda

<sup>30</sup> Кошифӣ, Ҳ. В. Калила ва Димна: Ҳикояҳо (Барои наврасон ва ҷавонон). – Душанбе: Адиб, 1989. – 304

bergan boblar tarjimasini nashrga kiritish “Anvori Suhayliy” asari muallifi xizmatlarini yo‘qqa chiqarish hisoblanadi.

Aliasg‘ar Hikmat tomonidan Navoiy tazkirasi ikki tarjimalarining bir jildda berilganligi, tarjimonlar yozgan muqaddimani olib tashlab, o‘rniga Navoiy muqaddimasi kiritilganligi kitob nashri sohasida yuz bergan o‘zboshimchalikning yana bir namunasi sifatida tanqidga uchragan. Ajdodlar adabiy merosini qayta ko‘rib chiqqan va unga yangi hayot bag‘ishlagan vorislar asarlarini oldingi muallif asari nomi bilan nashr etish jiddiy xatodir. Zero vorislar o‘z individualliklarini ko‘rsatganlar, asl matnni boyitganlar. Bu ham oz narsa emas. Hirot adabiy muhitida yaratilgan asarlar, jumladan Navoiy tazkirasi tarjimalariga “tarjima-ta’lif” sifatida baho berishimiz kerak.

## XULOSA

Badiiy tarjimada ijodiy vorisiylik va o'ziga xoslikni Hirot adabiy muhiti tarjimachilik an'analari doirasida olib borilgan tadqiqot ishi natijalari quyidagi umumiy xulosalarni shakllantirish imkonini berdi:

### **1. Badiiy tarjimada vorisiylik**

Tadqiqot natijalari badiiy tarjima namunalarini ijodiy vorisiylik nuqtayi nazaridan o'rganish to'g'ri yondashuv ekanligini tasdiqladi. Tanlangan asarlarda vorisiylik, yangicha talqin va tarjimonning o'ziga xos uslubi uyg'unlashgan. Vorisiylik faqat oldingi matnlardan keyingisiga o'tgan jihatlarni emas, balki tarixiy-madaniy sharoit, janr xususiyatlari, genetik aloqadorlikni ham o'z ichiga oladi hamda bu jihatlarning tarjimada qay darajada aks etgani muhim ahamiyat kasb etadi.

### **2. Vorisiylikda zamon va makon ta'siri**

Vorisiylik miqyosini aniqlashda adabiy "otalar" va "avlodlar" yashagan tarixiy davr hamda geografik makon hisobga olinishi zarur. Shu tariqa asarning mahalliy yoki milliy an'anaga mansub ekanligi aniqlanadi. Tarjimalar orqali turli siyosiy va ijtimoiy voqealar sababli uzilgan ma'naviy aloqalar qayta tiklangani o'z isbotini topdi.

### **3. Tarjimon shaxsiyati va individualligi**

Tarjima asarlarni tahlil qilish natijasida aniqlandiki, tarjimonlar nafaqat asl matn ma'nosini yetkazish bilan cheklanmaganlar, balki o'z hayotiy xulosalari, falsafiy qarashlarini ham aks ettirganlar. Shuningdek, tarjimonning shaxsiyati, e'tiqodi va adabiy maktab an'analari yangicha talqinlar vujudga kelishiga sezilarli ta'sir ko'rsatgani ma'lum bo'ldi.

### **4. "Nazmu-l-javohir" asarining manbasini aniqlash**

Alisher Navoiyning "Nazmu-l-javohir" asarining manbalarini aniqlash bo'yicha ilk urinish amalga oshirildi. Qiyosiy tahlil natijasida ushbu asarning asosiy manbasi Fazl bin Hasan Tabrisiyning "Nasr al-laoliy" (XII asr) to'plami asosida vujudga kelgan forsiy tarjima-sharhlari ekani aniqlandi. Shuningdek, Navoiy "burung'i shoir" deganda Ibn Savojjini nazarda tutgan bo'lishi mumkinligi taxmin qilindi. Asarning to'rtinchi satrlarida hikmat tarjimasini berish uslubi Ashraf va Nadimiy asarlariga yaqin ekani kuzatildi.

### **5. Tasavvuf adabiyoti ta'sirida yangi tarjima an'alarining shakllanishi**

Tadqiqot tasavvufiy adabiy meros badiiy tarjimada yangi an'alar paydo bo'lishiga ta'sir ko'rsatganini tasdiqladi. XV asrga kelib, deyarli besh asrlik irfoniy-adabiy tajribalarni umumlashtirish zarurati paydo bo'lgandi. Hirotlik shoirlar o'z salafining merosiga ijodiy yondashib, shu bilan birga o'z individualligini ham namoyish etganlar. Bu davrda yaratilgan har bir asarda tarjimonning o'ziga xosligi yaqqol ko'zga tashlanadi.

### **6. She'riy sharhlarda janrlar xilma-xilligi**

Hadis va hikmatli so'zlarning she'riy tarjimasida qit'a, fard, ruboiy, masnaviy va nasr kabi adabiy janrlar qo'llanilgan. Kichik she'riy shakllar tarjimondan qisqa va aniq ifoda talab qiladi, bu esa tarjimon-shoirlarning yuksak mahoratini namoyon etadi. Har bir tarjima va sharh beqiyosligi bilan ajralib turadi.

### **7. Tarjima asarlarning keyingi "hayoti"**

Tarjima asarlarning keyingi taqdiri alohida e'tibor talab qiladi. Voris adiblar tomonidan asl matn boyitilgan va rivojlantirilgan. Shu sababdan ularning asarlarini oldingi muallif nomi bilan nashr etish yoki turli sabablarga ko'ra matnga o'zgartirishlar kiritish noto'g'ri yondashuv hisoblanadi.

### **8. Tadqiqotning ilmiy ahamiyati**

Olingan natijalar Hirot tarjimachilik maktabi an'alarini o'rganishga hissa qo'shadi, ayrim matnlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni aniqlaydi va badiiy tarjima orqali adabiy merosning keyingi avlodlarga uzatilish yo'llarini tasvirlab beradi. Shu bilan birga, ushbu tadqiqot asl matn va ijodiy tarjima hamda adabiy aloqalarning ta'sirini tahlil qilish uchun yangi imkoniyatlar yaratadi.

#### **Yakuniy xulosa**

Keltirilgan xulosalar o'rganilayotgan matnlarning ahamiyatini tasdiqlaydi hamda badiiy tarjimani ijodiy vorisiylik kontekstida chuqurroq o'rganish zarurligini ko'rsatadi.

Olingan tadqiqot natijalari va ular yuzasidan shakllantirilgan umumiy xulosalar quyidagi **amaliy tavsiyalar**ni ishlab chiqish imkonini berdi:

1. XV asrgacha islom olamidagi tarjima tarixini uch asosiy davr, yoki bosqichga bo'lib o'rganish maqsadga muvofiq. Birinchi davri o'rta fors, suryoniy, yunoniy, qibtiy tillardan arab tiliga amalga oshirilgan tarjimalardan iborat bo'lsa, ikkinchi davri Xuroson va Movarounnahrda mahalliy xalqlar vakillari hukmronligi o'rnatilgandan keyin arabiy matnlarni yangi fors tiliga tarjima qilish ishlari bilan boshlanib, mo'g'ullar istilosi davrigacha davom etgan. Tarjimachilikning uchinchi davri mo'g'ullar va Temuriylar davriga to'g'ri keladi va bu davrda bir nechta adabiy asarlar fors tilidan eski o'zbek tiliga, nihoyat XVI asrda ilk marotaba turkiy bir asar fors tiliga tarjima qilingan.

2. Tarjimon individualligi ko'zga tashlanadigan asarlarga nisbatan tarjima-nazira, tarjima-sharh va tarjima-ta'lif atamalarini qo'llash maqsadga muvofiq.

3. Hikmatli so'zlarning hozirgi o'zbek tiliga qilingan tarjimalardagi xatolar 2013-yilgi nashrda ancha isloh qilingan bo'lsa-da, ayrim mavhum tarjimalar qayta ko'rib chiqilishi lozim. Chunki ba'zi bir hikmatli so'zlar tarjimalaridan ma'no chiqarish qiyin. Tabiiyki, oddiy kitobxon bunday tarjimani tushuna olmaydi.

4. "Majolisu-n-nafois" tazkirasining 5 ta forsiy tarjimalari asosida tadqiqotlar olib borilishi kerak. Zero tarjimonlar tomonidan keyingi asrlarda ilova qilingan ma'lumotlarni keng kitobxonlarga taqdim etish, hali o'rganilmagan tarjimalar asosida tadqiqot ishlarini olib borish matniy tafovutlarni aniqlashtirib olishimiz uchun muhim ilmiy ahamiyatga ega.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.03/30.12.2019.Fil.21.01 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ  
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ ТАШКЕНТСКОМ  
ГОСУДАРСТВЕННОМ УНИВЕРСИТЕТЕ ВОСТОКОВЕДЕНИЯ**  

---

**ТАШКЕНТСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ  
ВОСТОКОВЕДЕНИЯ**

**КАРАЕВ УМЕД ДЖУРАЕВИЧ**

**ТВОРЧЕСКАЯ ПРЕЕМСТВЕННОСТЬ И  
ИНДИВИДУАЛЬНОСТЬ В ХУДОЖЕСТВЕННОМ ПЕРЕВОДЕ  
(на примере переводческих традиций литературной среды Герата)**

**10.00.06 – Сравнительное литературоведение, сопоставительное языкознание  
и переводоведение**

**АВТОРЕФЕРАТ  
диссертации доктора философии (PhD) по филологическим наукам**

**Ташкент– 2025**

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована за номером B2023.3. PhD/Fil3844 в Высшей аттестационной комиссии при Кабинете Министров Республики Узбекистан.

Диссертация выполнена в Термезском государственном университете

Автореферат диссертации на трех языках [узбекский, русский, английский (резюме)] размещен на веб-странице Научного совета (<https://tsuos.uz/>) и информационно-образовательном портале «Ziynet» ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)).

**Научный руководитель:** Салохий Дилором Исомиддин кизи  
доктор филологических наук, профессор

**Официальные оппоненты:** Хомидов Хайрилло Худоёрович  
доктор филологических наук, профессор

Нафасов Шодмон Намозович  
доктор филологических наук, профессор

**Ведущая организация:** Ташкентский государственный университет  
узбекского языка и литературы имени Алишера Навои

Защита диссертации состоится 10 апреля 2025 г. в 10<sup>00</sup> часов на заседании Научного совета DSc.03/30.12.2019.Fil.21.01 по присуждению ученых степеней при Ташкентском государственном университете востоковедения. (Адрес: 100060, г. Ташкент, ул. Амира Темура, 20. Тел.: (99871) 233-45-21, факс: (99871) 233-52-24; e-mail: info@tsuos.uz.)

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Ташкентского государственного университета востоковедения (зарегистрирована за № 76). (Адрес: 100060, г. Ташкент, ул. Амира Темура, 20. Тел.: (99871) 233-45-21.)

Автореферат диссертации распространен 25 марта 2025 года.  
(Регистрационный отчет № 76 от 25 марта 2025 года).



[Signature]  
А.М.Маннопов  
Председатель Научного Совета по  
присуждению учёных степеней, доктор  
филологических наук, профессор

[Signature]  
Н.Р.Исматуллаева  
Учёный секретарь Научного Совета по  
присуждению учёных степеней, доктор  
философии по филологическим наукам  
(PhD), доцент

[Signature]  
Б.Тухляев  
Председатель научного семинара при  
Научном Совете по присуждению учёных  
степеней, доктор филологических наук,  
профессор

## **ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))**

**Актуальность и значимость темы диссертации.** В мировой переводоведении явление литературного влияния и исследование генеалогической взаимосвязи переводных произведений относятся к приоритетным вопросам. В связи с этим изучение литературных связей и их постепенного развития, сравнительное исследование оригинала и перевода, выявление содержательных и формальных сходств произведений, анализ творческой преемственности в художественном переводе, индивидуальности переводчика, выражения стиля художественного произведения в переводе, а также научная оценка трансформационных процессов в ходе перевода имеют важное значение.

Согласно результатам исследований, проведённых в разных странах мира, каждое новое литературное явление является не только плодом мысли конкретного автора, но и результатом многовекового накопления литературного опыта. Доставшиеся в наследство от предков книги, которые, по выражению Навои, стали «известными среди народа», или произведения, которые Н. Конрад определял, как «посредники», «передатчики», в последующие века превращались в источники вдохновения. Научные исследования показывают, что процесс совершенствования художественного перевода в прошлом также не был исключением из этого явления. Творческая и «историческая преемственность составляет одно из необходимых условий плодотворности всякого литературно-художественного творчества»<sup>1</sup>. Кроме того, «в средние века традиционность преобладала не только над индивидуальным творческим началом, но само творческое начало могло себя проявить только в рамках традиции»<sup>2</sup>. А индивидуальность творца «нашла своё выражение во многих деталях, ускользающих от внимания поколений»<sup>3</sup>. Преемники продолжили и развили дело, начатое предшественниками, и подняли его на более высокий уровень. С этой точки зрения возникает необходимость исследования творческой преемственности в переводе и особенностей каждого периода в рамках требований мирового переводоведения и современной научной парадигмы.

На современном этапе национальной стратегии развития нашей страны определены такие приоритетные стратегические задачи, как повышение качества и масштабов научных исследований. До сегодняшнего дня нашими учёными был проведён ряд исследований с целью изучения традиций художественного перевода, их исторических корней, общих и уникальных сторон деятельности переводчиков, живших в разные эпохи. На основе имеющихся научных данных особое значение имеет по-новому взглянуть к традициям переводческой деятельности литературной среды Герата, считающейся важным этапом узбекско-персидско-таджикских литературных связей, а также комплексное изучение переводческих образцов, выполненных

---

<sup>1</sup> Благой, Д. Диалектика литературной преемственности // Вопросы литературы. – 1962. – № 2. – С. 94

<sup>2</sup> Фильштинский И. М. История арабской литературы. V — начало X века. М.: Наука, ГРВЛ, 1985. – С. 12.

<sup>3</sup> Там же, на той же странице

с целью придания новой жизни литературному наследию предков, определение их сходных и уникальных черт. Таким образом, можно выявить, насколько сохранялся или изменялся авторский стиль в переводах определённого исторического периода и как развивались подходы к переводу. По словам нашего Президента, изучение общего наследия двух народов, являющихся «двумя ветвями одного дерева»<sup>4</sup>, является одной из важных задач, стоящих перед нами.

Данное диссертационное исследование в определённой степени окажет практическое содействие выполнению задач, отражённых в Указе № УП-60 Президента Республики Узбекистан, от 28.01.2022 г. «О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022 — 2026 годы», Указе № УП-5847, от 08.10.2019 г. «Об утверждении Концепции развития системы высшего образования Республики Узбекистан до 2030 года», в Постановлении Кабинета Министров Республики Узбекистан от 18.05.2017 г., №292 «О мерах по организации деятельности вновь созданных научно-исследовательских учреждений Академии наук Республики Узбекистан», в Постановлении Президента Республики Узбекистан, от 24.05.2017 г. № ПП-2995 «О мерах по дальнейшему совершенствованию системы хранения, исследования и пропаганды древних письменных источников», в Постановлении Президента Республики Узбекистан, от 23.06.2017 г. № ПП-3080 «О мерах организации Центра Исламской культуры в Узбекистане при Кабинете Министров Республики Узбекистан», в Постановлении Президента Республики Узбекистан, от 16.04.2020 г. № ПП-4680 «О мерах по кардинальному совершенствованию системы подготовки кадров и повышению научного потенциала в области востоковедения», в Законе Республики Узбекистан от 29 октября 2019 года № ЗРУ-576 «О науке и научной деятельности» (с изменениями от 12.10.2021 г.), в Постановлении Президента Республики Узбекистан, от 03.05.2019 г. № ПП-4307 «О дополнительных мерах по повышению эффективности духовно-просветительской работы», а также выполнение задач, предусмотренных иными нормативными правовыми документами, относящимися к данной сфере.

**Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики.** Диссертационное исследование выполнено в рамках приоритетных направлений развития науки и технологий Республики Узбекистан: I. «Духовное, нравственное и культурное развитие демократического и правового общества, формирование инновационной экономики».

**Степень изученности проблемы.** Хотя творческая преемственность и индивидуальность в художественном переводе не изучались как отдельный объект исследования на примере литературной среды Герата, о особенностях художественного перевода, обновлениях, изменениях, вопросах творческой

---

<sup>4</sup> Mirziyoyev Sh. Niyati ulug' xalqning ishi ham ulug', hayoti yorug' va kelajagi farovon bo'ladi. – Toshkent: «O'zbekiston» NMIU, 2019. – B. 181

индивидуальности переводчика проводили исследования такие западные теоретики перевода как П. Ньюмарк, Д. Холмс, Т. Германс, А. Попович, Г. Тури, А. Лефевр, М. Гусман, С. Баснет<sup>5</sup>, иранские исследователи О. Озарнуш, М. Бахроми, Х. Сидки<sup>6</sup>, русские и советские учёные Н. Конрад, С. Иванов, Ю. Левин, Г. Гачечиладзе, П. Топер, В. Комиссаров, Т. Казакова, А. Десницкий, Л. Евдокимова<sup>7</sup>, изучены в работах таких узбекских учёных, как Г. Саломов, Н. Комилов, К. Джураев, Э. Очилов, З. Исомиддинов, И. Гафуров, Г. Махмудов, Р. Ширинова, К. Мусаев, С. Олим, З. Садиков<sup>8</sup>.

Имеются научные наблюдения таких исследователей, как Б. Валиходжаева, А. Севги, А. Наджафова, Ф. Камолова, М. Пулатовой, А.

<sup>5</sup> Hermans T. The Manipulation of Literature. Studies in Literary Translation / . – L.: Croom Helm, 1985. – 249 p.; Popovic A. The Concept of Shift of Expression in Translation Analysis. The Nature of Translation. Eds. J. Holmes, F. de Haan, A. Popovic. The Hague, Mouton Publ., 1970, pp. 78–87; Toury G. A Rationale for Descriptive Translation Studies. The Manipulation of Literature. Ed. by T. Hermans. London, Croom Helm Publ., 1985, pp. 16–41. Lefevre A. Translation Studies: The Goal of the Discipline. Literature and Translation: New Perspectives in Literary Studies Eds. J. Holmes, J. Lambert, R. van de Broek. Leuven, Academic Publ. Co., 1978, pp. 234–235;

<sup>6</sup> آنرناش آذرنوش. تاريخ ترجمه از عربى به فارسى (از آغاز تا عصر صفوى): 1. ترجمه هاى قرآنى. – تهران: سروش، 1375. – 328 ص. ؛ صدقى حسين و ديگران. تطبيق كلى ابواب سه ترجمه كليله و دمنه و تحليل منشأ و موضوعات ابواب آن. مقاله كنفرانس: دومين همایش ملي ادبيات تطبيقى دانشگاه رازي، ۱۳ شهریور ۱۳۹۳. ۹۳۳ – ۹۵۴ ص.؛ بهرامى، محمد. نظريه پردازان ترجمه. نشریه پژوهشهای قرآنى، تابستان و پاییز ۱۳۸۴، شماره ۴۲ و ۴۳. صفحات: از ۱۷ تا ۴۱.

<sup>7</sup> Конрад Н. И. К вопросу о литературных связях / Н. И. Конрад // Конрад Н. И. Запад и Восток: Статьи. – Москва: Наука, 1966. С. 332 – 348 с.; Конрад Н.И. О Литературном “посреднике” / Запад и Восток. Статьи. – М.: Наука, 1966. – С. 348 – 365 с.; Иванов С. Алишер Навоийнинг “Лисонут-тайр” достони (Таржимоннинг асл нухани шарҳлаш тажрибаси) / Таржима санъати (Мақолалар тўплами). – Т.: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1978. 195 – 224 б.; Левин Ю. Перевод и бытие литературы. Вопросы литературы. №2, 1979 г. – С. 10-18.; Гачечиладзе, Г. Р. Художественный перевод и литературные взаимосвязи. – 2-е изд. – М.: Советский писатель, 1980. – 255 с.; Топер П. Перевод и литература: творческая личность переводчика. Журнал «Вопросы литературы», 1998, №6. С. 178-199; Комиссаров В.Н. Теория перевода (лингвистические аспекты). – М.: Высш. шк., 1990. – 253 с.; 54. Казакова Т. А. Художественный перевод: Учебное пособие. – СПб.: IVЭСЭП, Знание, 2002. – 112 с.; 50. Десницкий А. С. Скопос вместо эквивалента. / Десницкий А. С. Современный библейский перевод: теория и методология. – М.: Изд-во ПСТГУ, 2015. – 432 с.; Евдокимова Л. Перевод и подражание: литературная теория и практика. / Перевод и подражание в литературах Средних веков и Возрождения. – Москва: ИМЛИ РАН, 2002. – С: 3-11.

